



**SURXANDARYO VILOYATI SHO'RCHI TUMANI
ERGONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI VA SEMANTIK
GURUHLARI**

*DTPI Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 4- bosqich 403-
guruh talabasi **Rustamova Fotima Bahodirovna***

*DTPI Filologiya Va Tillarni O'Qitish O'zbek Tili Kafedrasida O'Qituvchisi
Dustmuradov Qahramon*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Surxandaryo viloyati Sho'rchi tumanida faoliyat yuritayotgan korxonalar, tashkilot va xizmat ko'rsatish obyektlari nomlari — ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ergonimlarning shakllanish manbalari, ularning semantik guruhlarida hamda hududiy, milliy-madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi yoritiladi. Tadqiqot natijasida Sho'rchi tumani ergonimlarining antroponimik, toponimik, diniy-ma'naviy, tabiatga oid va xorijiy qatlamlardan tarkib topgani aniqlanadi. Shuningdek, ularning nominativ, informativ va reklama funksiyalari ham ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: ergonim, onomastika, leksik-semantik tasnif, semantik guruhlar, Sho'rchi tumani, Surxandaryo viloyati, antroponim, toponim, nominatsiya, reklama funksiyasi, tilshunoslik, onomastik birliklar, nomlash tamoyillari, milliy-madaniy qadriyatlar.

**ЛЕКСИК-СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ И
СЕМАНТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ЭРГОНИМОВ ШОРЧИНСКОГО РАЙОНА
СУРХАНДАРСКОЙ ОБЛАСТИ**

ДТПИ Филология и языковое обучение: узбекский язык, 4 курс, группа 403, студентка Рустамова Фатима Баходировна



АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются лексико-семантические характеристики эргонимов — названий предприятий, организаций и объектов услуг, действующих в Шорчинском районе Сурхандарьинской области. Выделены источники формирования эргонимов, их семантические группы и их связь с территориальными, национально-культурными и социальными факторами. В результате исследования установлено, что эргонимы Шорчинского района состоят из антропонимического, топонимического, религиозно-духовного, природоведческого и иностранного слоев. Также рассмотрены их номинативная, информативная и рекламная функции.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: эргоним, ономастика, лексико-семантическая классификация, семантические группы, Шорчинский район, Сурхандарьинская область, антропоним, топоним, номинация, рекламная функция, лингвистика, ономастические единицы, принципы именования, национально-культурные ценности.

LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION AND SEMANTIC GROUPS
OF ERGONYMS OF SHO'RCHI DISTRICT OF SURKHANDARYO REGION

DTPI Philology and Language Teaching: Uzbek Language Direction 4th Stage,
Group 403 Student Rustamova Fotima Bahodirovna

ABNOTATION: This article analyzes the lexical-semantic characteristics of ergonyms - the names of enterprises, organizations and service facilities operating in the Shorchi district of Surkhandyo region. The sources of formation of ergonyms, their semantic groups and their connection with territorial, national-cultural and social factors are highlighted. As a result of the study, it was determined that the ergonyms of Shorchi district consist of anthroponymic, toponymic,



religious-spiritual, nature-related and foreign layers. Their nominative, informative and advertising functions are also considered.

KEYWORDS: ergonym, onomastics, lexical-semantic classification, semantic groups, Shorchi district, Surkhandarya region, anthroponym, toponym, nomination, advertising function, linguistics, onomastic units, naming principles, national-cultural values.

KIRISH

Ergonimlar Onomastik tilshunoslikning bir tarmog‘i bo‘lib, u XX asrning I yarmidan boshlab, maxsus predmet sifatida shakllana boshladi. ¹Ergonim atamasi birinchi marta 1978-yilda rus tilshunosi N.V.Podolskaya tomonidan qo‘llanilgan.² Bu tushuncha qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib ergo “ish, savdo”, “ism, unvon” so‘zlaridan olingan. Biroq mohiyatan uni “ish, mehnat” deya tarjima qilish maqbulroqdir. “Ergonim” so‘zi borasida turli tilshunoslar orasida turfa xil fikrlar mavjud. Latviyalik tilshunoslar orasida uni ma‘lum bir maqsad uchun yaratilgan kishilar uyushmasi (*tashkilot, kompaniya yoki ta‘lim muassasasi*) ma‘nosini bildiruvchi to‘g‘ri ot, degan fikrlar mavjud. Rus tilshunosligida esa ergonimlar ma‘lum bir yo‘nalish va faoliyat turi bilan birlashgan odamlar uyushmasini bildiruvchi tegishli ot sifatida tadqiq qilinadi. ³Rus tilshunoslari ergonimlarni ma‘lum bir harakat maqsadi uchun tuzilgan uyushmaning vazifaviy sohasini ko‘rsatadigan nomlar deb belgilaydilar. Nemis tilshunosligida bu atama nafaqat shaxslar uyushmalari yoki birlashmalariga, balki *tovar va xizmatlar nomlariga (masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak va avtomobillar), san‘at asarlari, nashrlar, radioeshittirish buyumlari, bolalar o‘yinchoqlari, kafelar, do‘konlar va*

¹ Qoraboyev A. O‘zbek xususiy nomlarining tahlili. – Toshkent: Fan, 2001. –156 b12

² Подольская, Н.В. Словарь русской онамастической терминологии. – Москва: Наука, 1978.

³ Подольская, Н.В. Словарь русской онамастической терминологии. – Москва: Наука, 1978



sartaroshlar kabi chakana savdo nuqtalarining nomlariga nisbatan ishlatiladi. Finlyandiya tadqiqotchilari bu atamani kamdan kam ishlatishadi va uning o‘rniga “kompaniya nomi”, “jamoat maydonidagi nom” yoki “tijorat nomi” deb yuritishni afzal ko‘radilar. Ularning fikricha, “ergonim” maktab, teatr, cherkov va byurokratik tashkilotlar kabi muassasalarning nomlarini ham ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida zamonaviy tilshunoslikda keng qo‘llaniladigan ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, materiallarni yig‘ish va saralashda kuzatish hamda to‘plash metodidan, ergonimlarning xususiyatlarini yoritishda tavsifiy metoddan, ularni guruhlarga ajratishda tasnif metodidan foydalanildi. Bundan tashqari, qiyosiy-tipologik metod yordamida ayrim ergonimlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlanib, miqdoriy-statistik metod asosida ularning qo‘llanish ko‘rsatkichlari hisoblandi. Komponent tahlil metodi orqali esa ergonimlarning semantik tarkibi chuqur o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ergonimlarning leksik-semantik tahlili ularning nomlanish motivatsiyasi, ma’no xususiyatlari hamda nominativ tamoyillarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday ergonim muayyan semantik asosga ega bo‘lib, korxonalar yoki tashkilot faoliyatining mazmuni, hududiy mansubligi, egasining shaxsi, milliy qadriyatlar yoki ijtimoiy-ma’naviy qarashlarni ifodalash vazifasini bajaradi. Shu sababli Sho‘rchi tumani hududidan to‘plangan 120 dan ortiq ergonimlar leksik-semantik jihatdan tahlil qilinib, ularning nominatsion xususiyatlaridan kelib chiqib sakkiz asosiy guruhga ajratildi.⁴

⁴ Sho‘rchi tumani prokuraturasi hujjatlari: tadbirkorlik subyektlari ro‘yxati. –Sho‘rchi, 2024



Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Sho'rchi tumani ergonimlari tarkibida hududiy mansublik, shaxsga nisbat berish, faoliyat turini ifodalash, ijobiy semantik mazmun yaratish va zamonaviy iqtisodiy tendensiyalarni aks ettirish kabi nominativ tamoyillar ustunlik qiladi.

Geografik nomlar asosidagi ergonimlar

Sho'rchi tumani ergonimlari orasida eng katta ulushni geografik nomlar asosida shakllangan ergonimlar tashkil etadi. Ushbu guruhga tarkibida joy nomlari, aholi punktlari, tarixiy hududlar yoki geografik obyektlar nomlarini saqlagan ergonimlar kiradi. Jumladan, "Sho'rchi-Denta-Servis", "Sho'rchi Dunyo", "Sho'rchi Obodonchilik", "Sho'rchi Transport", "Sho'rchi Xayriya", "Sho'rchi Parranda", "Sho'rchi Real-Grand", "Sho'rchi Respect", "Surxondaryo Pochtasi", "Oqkamar Rivoji", "Savur Dalasi", "Xaydarobod Maskani" kabi nomlar mazkur guruhga mansubdir.⁵

Mazkur guruhga mansub 68 ta ergonim aniqlanib, ular umumiy materialning 56,7 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich hududiy identifikatsiya tamoyilining Sho'rchi tumani ergonimikasida yetakchi o'rin tutishini ko'rsatadi. Korxonalar va tashkilot nomlarida "Sho'rchi" komponentining faol qo'llanilishi tadbirkorlarning o'z faoliyatini muayyan hudud bilan bog'lashga intilishini hamda mahalliy iste'molchilar orasida ishonch va tanilganlikni oshirishga xizmat qilishini anglatadi.

Shaxs ismlari asosidagi ergonimlar

Ikkinchi yirik guruhni shaxs ismlari asosida yaratilgan ergonimlar tashkil qiladi. Ushbu turdagi nomlar korxonalar egasi, asoschisi yoki oila a'zolarining ismi bilan bog'liq holda shakllangan bo'lib, mulkdorlik va shaxsiy mas'uliyat konseptini ifodalaydi. "Sho'rchi Ruzi Yuldoshev", "Sho'rchi Sanjarbek Qurilish", "Sho'rchi

⁵ Sho'rchi tumani hokimligi ma'muriy hujjatlari va korxonalar rasmiy ro'yxati. –Sho'rchi, 2024..



Turdimurod Javohir”, “Sho‘rchi Xojiakbar-Saidakbar”, “Sho‘rchi Xushboq Toshmirzayev”, “Sho‘rchi Sarvinoz Barakasi”, “Sho‘rchi Shahribonu”, “Sho‘rchi Sharofbek Shirinligi”, “Sho‘rchi Shaxzod Fayz”, “Sho‘rchi Olmos Akram Akmal” kabi nomlar bunga misol bo‘la oladi.

Mazkur guruhga 22 ta ergonim mansub bo‘lib, ular umumiy materialning 18,3 foizini tashkil etadi. Bu holat o‘zbek xalqining nom berish an‘analarida shaxs omilining muhim o‘rin tutishini hamda oilaviy tadbirkorlikning keng rivojlanganligini ko‘rsatadi.⁶

Faoliyat turi va sohasini bildiruvchi ergonimlar

Sho‘rchi tumani ergonimlari orasida korxonaning asosiy faoliyat yo‘nalishini aks ettiruvchi nomlar ham salmoqli o‘rin egallaydi. Bunday ergonimlarda korxonaning ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasi bevosita nom tarkibida ifodalanadi. Jumladan, “Paxta Tozalash”, “Don Mahsulotlari”, “Pistazorlari”, “Paxtakor Dalasi”, “Parranda”, “Omuxta Em”, “Poultry Invest”, “Qandolat Mahsulotlari”, “Aslburger”, “Pazanda Taomlari”, “Yulduz Taomlari”, “Petrol Oil”, “Sement Bozori”, “Tex Ta‘mir”, “Trans Invest Servis” kabi nomlar mazkur guruhga kiradi.

Tahlil natijasida ushbu guruhga mansub 15 ta ergonim aniqlanib, ular umumiy materialning 12,5 foizini tashkil etishi ma‘lum bo‘ldi. Bunday nomlar iste‘molchilarga korxonaning faoliyati haqida dastlabki ma‘lumot berishi bilan ahamiyatlidir.⁷

Farovonlik va ijobiy ma‘no ifodalovchi ergonimlar.

⁶ Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi: tuman bo‘yicha korxonalar statistikasi. – Termiz, 2024.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi: yuridik shaxslarning yagona davlat reestri. – Toshkent, 2024.



Shoʻrchi tumani ergonimlarining muhim qismini baxt, saodat, fayz, baraka va muvaffaqiyat tushunchalarini ifodalovchi nomlar tashkil qiladi. “Ozoda Nur Fayz Baraka”, “Sarvinoz Barakasi”, “Risq Baraka”, “Yoshgʻayrat Saxovati”, “Ravon Yoʻl”, “Porloq Hayot”, “Ozoda”, “Ozod Yoʻl” kabi nomlar ushbu guruhga mansubdir.

Mazkur guruhdagi 11 ta ergonim umumiy materialning 9,2 foizini tashkil etadi. Bunday nomlar xalqning ezgu niyatlari, farovonlikka intilishi hamda nomning muvaffaqiyatga taʼsir qilishi haqidagi anʼanaviy qarashlari bilan bogʻliqdir.

Qimmatbaho boylik va neʼmatlar nomlari asosidagi ergonimlar

Tahlil davomida qimmatbaho toshlar, metallar va boylik ramzlarini ifodalovchi ergonimlar ham alohida semantik guruh sifatida ajratildi. “Koʻz Nuridur Gavhar”, “Olmos”, “Oltin Koʻmir”, “Oltin Tuproq”, “Selver Gold”, “Yasmin Gold”, “Xalq Javohiri” kabi nomlar shular jumlasidandir.

Mazkur guruhga mansub 8 ta ergonim umumiy materialning 6,7 foizini tashkil etadi. Ushbu nomlar orqali sifat, qadr-qimmat, boylik va mustahkamlik tushunchalari ifodalanadi.

Taraqqiyot va istiqbol gʻoyalarini ifodalovchi ergonimlar

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida rivojlanish va istiqbol tushunchalari bilan bogʻliq nomlar ham keng qoʻllanmoqda. “Oqkamar Rivoji”, “Taraqqiyot Yogʻdusi”, “Taraqqiyot-Bizness”, “Xalq Taraqqiyoti”, “Yuksalish Farm”, “Obodonchilik”, “Olatemir Kelajagi” kabi ergonimlar bunga misoldir.

Mazkur guruhga kiruvchi 7 ta ergonim umumiy materialning 5,8 foizini tashkil etdi. Bu holat tadbirkorlarning kelajakka ishonchi va taraqqiyot gʻoyalarini nomlash jarayonida aks ettirishga intilishlarini koʻrsatadi.



Xorijiy tillar ta'sirida shakllangan ergonimlar

Globalizatsiya jarayonlari Sho'rchi tumani ergonimlarida ham o'z aksini topgan. Natijada ingliz va boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan birliklar asosida yaratilgan nomlar soni ortib bormoqda. "Qurilish Dizayn Invest", "Poultry Invest", "Trans Invest Servis", "Sho'rchi-Denta-Servis", "Imron-Imkon-Market 555", "Sarvar-Farm", "Yuksalish Farm", "Real-Grand", "Grandpharm", "Selver Gold", "Yasmin Gold", "Samo Sentr", "Respect", "DMS", "Unistepa" kabi ergonimlar mazkur guruhni tashkil etadi.

Ushbu guruhdagi 12 ta ergonim umumiy materialning 10 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Sho'rchi tumani ergonimikasida xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarning ta'siri kuchayib borayotganligini ko'rsatadi.

Tabiat va hayvonot olami bilan bog'liq ergonimlar

Eng kichik guruhni tabiat va hayvonot olami bilan bog'liq nomlar tashkil etadi. "Qaldirg'och", "Oq Tulpor", "Oq Amur Delfin", "Parranda" kabi ergonimlar ushbu guruhga mansub bo'lib, ular yangilanish, erkinlik, kuch-qudrat, tezkorlik va hayotiylik kabi ramziy ma'nolarni ifodalaydi.

Mazkur guruhga atigi 4 ta ergonim kirib, umumiy materialning 3,3 foizini tashkil etdi.

№	Guruh nomi	Soni	Foiz
1	Geografik nomlar asosidagilar	68	56,7%
2	Shaxs ismlari asosidagilar	22	18,3%
3	Faoliyat turini bildiruvchilar	15	12,5%
4	Baxt-saodat ma'nosini ifodalovchilar	11	9,2%
5	Boylik ramzlari asosidagilar	8	6,7%



6	Taraqqiyot ma'nosidagilar	7	5,8%
7	Xorijiy leksemalar asosidagilar	12	10%
8	Tabiat obrazlari asosidagilar	4	3,3%
	Jami	120+	100%

Leksik-semantik tasnif natijalari Sho'rchi tumani ergonimlari tizimida geografik nomlar asosidagi ergonimlar mutlaq ustunlik qilishini ko'rsatdi. Ularning ulushi 56,7 foizni tashkil etib, boshqa barcha guruhlardan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat mintaqaviy identifikatsiya va hududiy mansublikning nomlash jarayonidagi yetakchi omil ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, shaxs ismlari asosidagi ergonimlarning yuqori ulushi (18,3%) oilaviy tadbirkorlik va shaxsiy mulkdorlik an'analarning kuchliligidan dalolat beradi. Faoliyat turini ifodalovchi, ijobiy semantik mazmun yuklovchi hamda xorijiy elementlar asosida yaratilgan ergonimlar esa zamonaviy iqtisodiy va madaniy jarayonlarning nomlash tizimiga ta'sirini namoyon etadi.

Demak, Sho'rchi tumani ergonimlari leksik-semantik jihatdan rang-barang bo'lib, ularda milliy an'analari, hududiy o'ziga xoslik, iqtisodiy faoliyat va globallashuv jarayonlari o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Bu esa mazkur ergonimlar tizimining lingvistik va lingvomadaniy jihatdan muhim tadqiqot obyektlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qoraboyev A. O'zbek xususiy nomlarining tahlili. – Toshkent: Fan, 2001. –156 b12.
2. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi: tuman bo'yicha korxonalar statistikasi. –Termiz, 2024.



3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi: yuridik shaxslarning yagona davlat reestri. – Toshkent, 2024.

4. Sho‘rchi tumani hokimligi ma‘muriy hujjatlari va korxonalar rasmiy ro‘yxati. – Sho‘rchi 2024.

5. Sho‘rchi tumani prokuraturasi hujjatlari: tadbirkorlik subyektlari ro‘yxati. – Sho‘rchi, 2024.

6. Подольская, Н.В. Словарь русской онамастической терминологии. – Москва: Наука, 1978.